

## ЭКОЛОГИК ТА'ЛИМ ВА ТАРБИЯ БЕРИШДА ЭКОЛОГИК СО'ҚМОQLARDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIXATLARI

*Mamirova Zulfiya Ibroximjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti geografiya yo'nalishi magistranti*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirishda muhim bo'lgan ekologik so'qmoqlarni tashkil etish va undan foydalanishning geografik jixatlari taxlil qilingan. Shuningdek, ekologik so'qmoqning modelini yaratish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** geoidikasiya, yangi tektonik xarakterlar, daryo vodiysi, tektonik xarakterlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, landshaft xilma-xilligi.

**Kirish.** O'quv ekologik so'qmoq o'quvchilarda tabiat to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish, rivojlantirish bilan birga, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalarini bajaradi. Ekoso'qmoqning vazifasi u o'z ichiga jonli va jonsiz tabiat, o'simlik va hayvonot olamini tipik vakilari, ularni atrofdagi sharoitga moslashish yo'llari bilan tanishtiradi; turli xil ekotizimlarni o'rganish va o'simlik va hayvonotlar o'rtasidagi va atrofdagi sharoitlar o'rtasidagi ekologik bog'liqlikni aniqlash; ekotizimga inson faoliyatining ta'siri tahlili; tabiiy ob'ektlar o'rganishining ilmiy usullari va mustaqil ta'lim olishni va tekshiruv ishlar olib borish ko'nikmani orttirish.

Shuning uchun ekologik so'qmoqni «tabiatdagi o'quv xonasi» deb atashadi. Ekoso'qmoqning rivojlantiradigan vazifasi shundan iboratki, u bolalarda diqqat, kuzatish, xotira, tahliliy tafakkurni va go'zallikni qabul qilish, ularning ijodiy imkoniyatlarini ochishga sharoit tug'diradi. Tarbiyaviy vazifasi tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatni tarbiyalaydi, ekologik madaniyatni rivojlantiradi. Tabiatga muhabbat o'zidan-o'zi tug'ilmaydi, uni uyg'otish zarur. Bu yerda bolalarni tabiat bilan bevosita muloqot tajribasi juda muhim. Ekologik so'qmoqda olib boriladigan kuzatuvlar jarayonida o'quvchilar jonajon tabiatini o'rganadilar, uning go'zalligi va nozikligini, ekologik tizimda har bir tur juda muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunishni boshlaydilar.

Birinchi ekologik so'qmoqlar o'tgan asrning boshlarida AQShda tashkil etilgan. O'rmonchi Benton Makkey Appalachi tog'lariga piyodalar yo'lini o'tkazish taklifini bergan. Appalachi tog'lari bo'ylab, 1922 yilga kelib 3300 km uzunlikdagi ekologik so'qmoq shimoli-g'arbdan Men shtatidan janubi-sharqda Jorjiya shtatigacha shtkazilgan. Keyinchalik uzun va qisqa ekologik so'qmoqlar AQShning milliy bog'larida tashkil qilindi. Bu so'qmoqlar amerikalik va sayohatchilarning tabiat qo'ynidagi eng sevimli dam olish maskanlariga aylandi. Bugunga kelib ekologik so'qmoqlardan jahonning juda ko'p mamlakatlarida, Kanada, Fransiya, B.Britaniya,

Germaniya, Rossiya, Ukraina, Pol'sha, Shvesiya, Shveysariya, Chexiya, Estoniya, Keniya, Hindiston, Yaponiya va kabi davlatlarda juda keng foydalanib kelmoqdalar.

Ekologik so'qmoq o'quvchilarni ijodi uchun keng maydonni yaratadi, nafaqat biologiya va geografiya, balki boshqa fan o'qituvchilari faoliyati uchun yordam beradi. Masalan, jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki harbiy fan o'qituvchisi ekologik so'qmoqda atrofda mo'ljal olishni, informatika o'qituvchisi – komp'yuter dasturlari bilan ishlashda ekologik so'qmoq misollarini qo'llashi mumkin, rasm o'qituvchisi esa tabiat qo'ynida tabiat ko'rinishlarini chizishni taklif etishi yoki anshlaglarning eskizini yaratishni taklif qilishi mumkin va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ekologik ta'lim tarbiya berishda ekologik so'qmoqlarning ahamiyati va ularni tashkishning nazariy va amaliy masalalari N.F.Reymers, F.R.Shtil'mark, V.S.Preobrajenskiy, A.G.Isachenko, I.Abduganiev, Yu.Sultonov, A.A.Rafiqov, A.Nigmatov, N.Yu.Beshko, K.Ibotova, I.V.Grosheva, N.S.Shivaldova, I.V.Kuryaeva va boshqalarning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan.

### **NATIJA VA MUHOKAMALAR.**

Ekologik so'qmoqni tashkillashtirish va uni obodonlashtirish ishlarida ishtiroki bolalarni mehnatga o'rgatadi, o'zining va boshqalarning mehnati hosiliga bo'lgan javobgarlik hissini rivojlantiradi. Sog'lomlashtirish vazifasi ekologik so'qmoq tabiat qo'ynida aqliy mehnat va jismoniy yukni dam olish bilan qo'shilishi tufayli bajariladi. Ekologik so'qmoq o'quvchilarni ijodi uchun keng maydonni yaratadi, nafaqat biologiya va geografiya, balki boshqa fan o'qituvchilari faoliyati uchun yordam beradi. Shuning uchun, o'quv ekologik so'qmoqni tashkillashtirish va jihozlash jarayoni juda katta pedagogik ahamiyatga ega. Bunday jarayonlardagi belgilangan ishlarning muvaffaqiyati jamoaning manfaatdorligi va emosional holati, ya'ni ularning kayfiyatiga ham bog'liq bo'ladi. Ekologik so'qmoqlarning ilmiy-amaliy ahamiyati katta bo'lib, quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- biologik va landshaft hilma-xilligini saqlash va ulardan uzoq muddatli foydalanish;
- mahalliy hokimiyat ma'muriyati, ma'sul shaxslar, aholi va yosh avlod o'rtasida biologik va landshaft xilma-xillikni saqlash bo'yicha ekologik bilimlarni targ'ibot qilish;
- biologik va landshaft xilma-xillikdan ovchilik, turizm, shifobaxsh giyohlarni terish va boshqalarda foydalanish;
- chuchuk suvli hududlarni, barcha turdagi resurslarni saqlash, cho'lga aylanishning oldini olish;
- inson hayoti uchun muhim bo'lgan tabiiy muhitni saqlash kabi pul orqali baholab bo'lmaydigan, biroq har bir davlat uchun uchun ko'zga tashlanuvchi iqtisodiy ahamiyatga ega sohalarni rivojlantirish va boshqalar.

Shuning uchun, dastlab ekologik so'qmoqning modelini yaratish muhim ahamiyatga egadir. Ekologik so'qmoqlar turli funksiyanal zonalarni qamrab olishi muhim ahamiyatga egadir. Masalan: qo'riqxonalar rejimiga ega zona, rekreasiya va turizm zonasi; cheklangan xo'jalik yuritish zonasi, aholi yashash hududlar va an'anaviy xo'jalik yuritish zonasi; tarixiy madaniy ob'ektlar joylashgan zonalar; tabiatning noyob yaatmalariga ega bo'lgan va turli tadbirlarni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan hududlar. Ekologik so'qmoqni tashkil etish ishlari bir necha bosqichda olib boriladi. Bunda asosiy e'tibor, ekologik ta'lim tarbiya berish hamda ekologik turizmni rivojlantirishga qaratiladi.

**Birinchi bosqich** - tashkiliy. Ekologik so'qmoqni tashkil etish bilan shug'ullanadigan tashabbuskor guruh yaratiladi. Jonajon tabiatni o'rganish va muhofaza qilish umumiy guruh - qiziquvchan o'qituvchi va bir necha o'quvchilardan iborat bo'ladi. Ko'pincha ekologik so'qmoqni yaratuvchilari yosh o'lkashunoslar yoki maktabning tabiatshunoslar to'garagi a'zolari bo'ladi. Tashabbuskor guruh o'z ishiga ko'proq bolalarni (balki butun maktab jamoasi) jalb qiladigan ilg'or bo'ladi. Bu bosqichda bo'lajak ishning vazifalari, ishning hajmi, harakatning tartibi, har bir a'zoning o'z o'rni belgilanadi. Ekologik so'qmoqni yaratish bo'yicha umumiy reja va har bir brigada uchun harakatlar rejasi to'ziladi. Agar so'qmoq o'rmon xo'jaligi hududidan o'tkazilsa, unda o'rmon xo'jaligi rahbariyatidan ruxsatnoma olish zarur bo'ladi.

**Ikkinchi bosqich** – ekologik so'qmoqni o'tqazish va karta-sxemasini to'zish. Sinfidan tashqari mashg'ulotlarda haritachi-loyihachilar brigadasi geografiya o'qituvchisi boshchiligida barcha talablarga javob beradigan (ular to'g'risida bir oz keyinroq aytiladi) so'qmoqni tanlaydilar. Imkon qadar biologiya, tarix, mehnat, rasm va boshqa o'qituvchilarni maslahatchi sifatida jalb qilish zarur. Guruh so'qmoqning yo'nalishini sinchiklab o'rganadi, ekskursiya davomida ko'rsatiladigan ob'ektlarni, kuzatish va dam olish maydonlari joylarini aniqlaydi, ma'lumotlar taxtasini o'rnatish joylarini, ko'rsatkichlar, maket va boshqa jihozlarning boshqa muhim elementlari joylarini belgilaydi. Yirik kattalikda yo'nalishning barcha ob'ektlari belgilangan xarita-sxema chiziladi. Unda yo'nalishning barcha jihozlarning ro'yxati, yo'nalish davomida o'rnatish zarur bo'lgan barcha narsalar, stend va tablichkalarining mavzu ro'yxati belgilanadi.

**Uchinchi bosqich** – ekologik so'qmoqni shakllantirish va jozibadorligini ta'minlash. Yo'nalishda tayyorlash va o'rnatish zarur bo'lgan ob'ektlarning ro'yxati aniqlangandan keyin rasm va mehnat o'qituvchisi boshchiligidagi shakllantiruvchi-dizaynerlar yo'nalishni shakllantirish loyihasini ishlab chiqadilar. Bir vaqtda faoliyatni ma'lumot to'playdigan brigada – shior, chaqiriqlar tayyorlaydi, stendlar uchun ilmiy va badiiy matnlar ustida ishlaydi, ekologik so'qmoqda o'zini tutish qoidalarini ishlab

chiqadi. Agar bir necha variantlar mavjud bo'lsa, unda eng yaxshilari ovoz berish yo'li bilan tanlanadi.

Ekologik so'qmoqni tashkillashtirish jarayoniga imkon qadar ko'proq o'quvchilarni jalb qilish uchun ma'lumot guruhi maktabda ob'ektlarning har biri, stendlarning har biri uchun eng yaxshi matn tanlov e'lon qilishi mumkin, jonajon mahalliy tabiat to'g'risida referatlar, tabiat to'g'risida xalq maqollari tanlovini, ekologik viktorinani o'tqazishi mumkin. Barcha yig'ilgan materiallar asosida «ma'lumotlar banki» to'ziladi, ekskursiyalar o'tqazish jarayonida ulardan foydalanish mumkin. Biologiya, geografiya, tarix va adabiet o'qituvchilari dizaynerlar va ma'lumot guruhiga maslahat beradilar. Shunday qilib, ekologik so'qmoqni shakllantirish ishlarida ishtirok etgan bolalar jamoada rejalashtirish, mustaqil bilim olish, ishbilarmon muomalani, hamqorlikda muammolarni hal qilish va bir-biriga yordam berish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Yo'nalish jihozlangunga qadar, ekskursovodlar brigadasi ekoso'qmoqqa rahbarlik qilayotgan o'qituvchi ekskursiyalarning mavzulari va tartibi, ekoso'qmoqning pasporti va ekskursion ob'ektlarning tasnifi bilan shug'ullanadilar. Yuqori sinf o'quvchilari orasida eng qiziqqon va faollari ekskursovod bo'ladi. Ular adabiyotni, axborot brigada tomonidan yig'ilgan materiallarni tahlil qiladi, bo'lajak ekskursiyalar mavzusi bo'yicha referatlar tayyorlaydi, ekoso'qmoqda ekskursiyalar o'tqazishni o'rganadilar.

Ekскурsovodlar brigadasiga fan o'qituvchilari maslahat beradi, adabiyot o'qituvchisi esa mazmunli gapirishni (diksiya), nutq madaniyati va auditoriya oldida o'zini tutishni o'rgatadi. O'qituvchilar vazifasi yosh tabiatshunoslarni nafaqat matnni yaxshi bilishni va qo'qqisdan berilgan savollarga javob berishni, balki hayajon bilan qatnashchilarni qiziqtirib hikoya qilishni o'rgatadi. O'qituvchilarni o'zlari o'tkazgan ekskursiyalar ekoso'qmoq qatnashchilariga yoshi katta ekskursovodni suhbatidan ko'ra juda katta ta'sir qiladi.

**To'rtinchi bosqich** – ekoso'qmoq faoliyatining boshlanishi. Bu vaqtga kelib, ekoso'qmoq ekskursiyalar o'tqazishga tayyor: yo'nalish jihozlangan, ekskursion ob'ektlar tasnifi tayyorlangan, ekoso'qmoqning pasporti va uning ish rejasi tasdiklangan. Ekoso'qmoqning ochilishiga bag'ishlangan ekologik bayram tadbiri utkaziladi. Mexmonlar – ona-onalar, jurnalistlar, tuman xalq ta'limi bo'limi, maxalla kumitasi, xokimiyat vakillari, taklif kilinadi. Bayram ssenariysini oldindan tayyorlab ko'yilishi kerak, chiqishlarni repetisiya qilib ko'yish zarur.

**Xulosa.** Ekskursiyada doimo turli ob'ektlarni, masalan, tabiatning noyob yaratmalaridan g'orlar, sharsharalar, daralar, buloqlar, asriy daraxtlar bilan birga, turli hayvon izlari, hasharotlar, o'simliklar va ularning urug', barg kabilarni ko'rsatish tavsiya etiladi. Buning uchun pedagog atrofida butun guruh jamlanishini kutish tavsiya qilinadi. Namoyishga kirishishdan oldin o'z atrofida diametri ikki metr bo'lgan xoli

aylana hosil qilish kerak. Ekskursiya qatnashchilari qay darajada ko'p bo'lsa, aylana shu darajada keng bo'lishi zarur. Agar namoyish ob'ekti atrofida turli o'simliklar yoki hayvonlarning inlari joylashgan bo'lsa, bolalarni ogohlantirish kerak.

Ekskursiya vaqtida pedagog beto'xtov gapirishi kerak emas. Hikoyasining alohida qismlari orasida bolalar ustozidan eshitgan va o'z ko'zlari bilan ko'rganlarini o'ylab olishlari uchun tanaffuslar bo'lgani ma'qul. Bu to'xtashlar olingan taassurotlar va ma'lumotlarni xotirada mustahkamlab, tahlillar va xulosalarni shakllantirish uchun juda zarur. Pedagog ekskursiyada oddiy bayon qilish va ob'ektlarni namoyish etish bilan chegaralanib qolmasligi tavsiya etiladi, yo'nalish davomida imkon qadar bolalarni faol va ijodiy ishlarga, aniq vazifalarga va ularni mustaqil hal qilishlariga jalb qilish kerak. Har bir ob'ekt qarshisida bir necha daqiqa mustaqil kuzatuv olib borishlari lozim. Yo'nalish yakunida bolalarning tasurotlarini eshitish va ularni to'ldirish bilan qisqa xulosa yasash mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdug'aniev O., Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning etalon funksiyasi ahamiyati va samaradorligini baholash. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 52-jild. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2018. B. 15-22.
2. Abdug'aniev O., Davlat qo'riqxonasini tashkil etish – Markaziy Farg'ona tabiatidan foydalanishning oqilona yo'li. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 52-jild. Ilmiy jurnal. Toshkent, 2018. B.47-53.
3. Abdug'aniev O.I. Ekologik yo'laklarning samaradorligini ta'minlashda muhofaza qilinadigan o'rmonlarning ahamiyati va ularni baholash usullari //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – S. 26-31.
4. Afonin A. V. Ekologicheskie tropi Rossii. – M.: PK Litfonda Rossii, 1993. – 36 s.
5. Beshko N.Yu., Ibotova K. Ekologik yo'nalish: "Nurota-Qizilqum axborot markazini rivojlantirish" Global Ekologik Jamg'armaning Kichik Grantlar Dasturi loyihasi. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T. 2010.
6. Rozenberg A.V., Rozenberg M.V. Ekologicheskaya tropa na territorii shkoli «Prezident» // Start v nauke. – 2019. – № 4-2. – S.
7. Grosheva I.V., Shivaldova N.S., Kuryayeva I.V. MTM hududida ekologik so'qmoq tashkil etish "Yer sayyorasi – bizning umumiy uyimiz" mavzusidagi ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha parsial dastur uchun uslubiy qo'llanma, birinchi nashr Toshkent – 2022 yil.